

HAZRATI LANGAR OTA ZIYORATGOHI TARIXI

Ilmiy rahbar: Samatov Xurshid O'lmasjonovich

1-kurs talabasi Ismatov Muhammad

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali Kompyuter injinerin fakulteti

Telefon raqam: +998507033206

Elektronpochtamanzil: ismatovmuhammad790@gmail.com

Anntatsiya:

Ushbu maqolada O'rta asrlarning ko'rkam na'munasi sifatida ko'kga bo'y cho'zib turgan Hazrati Langar ota ziyoratgohining tarixi haqida bo'lib, uning qachon va qaterda barpo etilganligi, bu ziyoratgohda kimlarning qabri joylashganligi va ularning bu ziyoratgohning yaratilishi uchun qo'shgan hissalar haqida biroz tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: shayx, sag'ana, Langar ota, ziyoratgoh.

O'rta asrlarning ko'rkam na'munasi sifatida ko'kka bo'y cho'zib turgan Langar ota maqbarasi O'zbekistonning madaniy meros obyektini hisoblanadi. Bu inshoot Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi Ko'kbuloq mahallasida joylashgan bo'lib taxminan XV asrlarda barpo etilgan. Langar atamasi mozor, qabriston, ziyoratgoh va shu bilan birgalikda karvansaroy, karvonlar to'xtash joyi, bekati degan ma'noni ham anglatadi. Langar so'zining yana bir ma'nosi, aslida tahalus, tenglik, muvozanat saqlovchi degan ma'nolarni ham anglatadi. Ushbu Langar ota Maqbarasi bir gumbazli va ulkan peshdoqli mashhur obida bunyod etilganligidan buyon bir necha bor ta'mirlangan bo'lsada qadimiy shkali-shamoyilini ya'ni asliyatini sira yo'qotmagan. Gumbaz tepasida bo'ylanib kishi etiborini jalb etadigan tug'dagi, to'rt halqasi esa ul zot marifat tariqat va haqiqat ilmlarini chuqur egallaganligini anglatadi. Maqbaraning janubiy eshigidan qadam qo'yishingiz bilan memorchlikning o'ziga xos, go'zal namunasiga duch kelasiz. Bino tepasidagi gumbaz markazi islmiy naqshlari bilan ziynatlangan, har bir bezak g'oyatda nafislik hamda aniq geometric o'lchov asosida o'ta yuksak mahorat bilan chizilgan. Majmuani tevarak degan qoramtir tushdagi qoshida esa, qur'on oyatlari bitilgan. Gumbaz qo'ndirilgan devor, memoriy yechim asosiga



ko'ra chor tarafdin katta va kichik burchaklar hosil qilgan. Bu burchaklar tufayli yuzaga kelgan ravoqsimon bo'lmalar esa, mavjud kompozitsiyaning davomiyligini tashkil etgan holda har biri qora fonga bitilgan go'zalliklar, qur'on oyatlari bilan nihoyalangan. Hattotlik sohasining o'ziga hos go'zal namunasi bo'lmish bu bitiklar devor bo'lab aks etib ketgan hoshiyada ham aks etilgan. Maqbaraning g'arbiy janubiy tomonida esa, so'nggi ta'mir paytida tuproq ostidan topilgan va keyinchalik maxsus tiklangan qadimiy dahmalar majmuasi ham mavjud. Sohib qiron Amir Temurning sarkardalaridan birining qabrtoshi ham ushbu joydan o'rin olgan.

O'rta asrlarda yashagan sayyoh Ibn havkalni yozishicha hozirgi Katta Langar qishlog'ining hududlari kesh viloyatiga bo'ysunuvchi Siam tog'li tumanga qaragan. Arab xalifaligiga qarshi bosh ko'targan Muqanna boshchiligidagi qo'zg'olonchilar shu tog'li hududlarda jon saqlab Arab lashkarlariga qarshi jang olib borib, kutilmagan zarbalar bergan edilar. Abu Rayhon beruniyning yozishicha XI asrlarda ham Siam yumani va unga yaqin joylarda soxta payg'ambar Mazdakning ayrim g'oyalari tarqalgandir. XIV-XVI asrlarga kelib esa bu hudud Islom dinining rivojiga kata hissa qo'shgan, ulug' shayxlar yashagan mintaqada sifatida mashhur bo'lib ketgan. Katta langar qishlog'I uzoq asrlardan buyon nafaqat muqaddas ziyoratgoh balki, tadqiqot manbasi bo'lib kelgandir. XIV asrning 2-yarmida Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilingach ko'plab rus ziolori, harbiylari o'lka tsrixini o'rganishga bu yerda saqlangan obidalar bilan tanishishga kirishganlar. Ular shu muqaddas o'lkaning turli tomonlariga ziyoratlarga chiqqanlar. 1889-yili Buxoro amirligi Sharqiy hududlarida harbiy harakatlar olib borgan podpolkolnin Veliaveskiy Katta Langar qishlog'ida bo'lgan va bu yerda saqlangan tarixiy obidalar haqida o'z xotiralarida yozib qoldirgan edi. Katta Langardagi tarixiy obidalar haqida birinchi marta yilmiylikka yaqin baho bergan rus harbiy muhandisi Kastaliskey edi.

Katta Langar shaharlarining yana biri bu, „Katta Langar Jomi Masjidi“ hisoblanadi. Ushbu masjid hozirgi kunda ham Langar soyining o'ng qirg'og'ida qirning ustida qad rostlab turibdi. Masjidning tafti to'g'ri burchakli shaklda bo'lib, u ikki xonaqohdan iborat. Masjidning sharqiy tomonida hashamatli peayvon qurilgan bo'lib o'n ustunli. Bu ayvon har ikkala xonaqoni birlashtirib turibdi. Masjidning hovuzida doimo zilol suvga to'lib turga hovuz barpo qilingan. Masjidning G'arbiy tomonida zali joylashgan va u anchayin qadimiy bo'lib, uning devorlari dastlab xomg'ishtlardan terilgan, ichiga esa 4ta baquvvat ustun



o'rnatilgan. Keyingi tamirlash ishlarida esa xomg'ishlarning ustiga pishig'ishtlar terilib g'ishtlarning usti suvoq bilan suvalib har xil naqshlar chizilgan. Keyinchalik nomozga keluvchi nomozxonlar ko'paygach uning yonidan yangi besh ustunli masjid qurilgan, ammo yangi masjidning ichgi devorlari ham ganch bilan suvalib, unda nafis naqshlar yaratilgan. Masjidning shifti yassi bo'lib, u vassalar bilan yopilgan. Shu o'rinda bir narsani alohida takidlash lozimki masjidning mehrob qismi alohida nozig did va kata mahorat bilan bezatilgandir. Mehrob atrofi susul usulida yozilgan arabcha yozuv bilan to'ldirilgan bo'lib, moviy fonga oq rangli yozuvlar bitilgan. Rang –barang hoshinlardan yaratilgan ajoyib mazayka kishining toqatini o'ziga jalb etadi. Katta Langar masjidi 1516-yilda yani shayx Muhammad Sodiq yashagan davrda qurib bitkazilgan deagan tahminlar mavjud. Lekin, keying davrlarda ham ta'mirlanganligi ma'lum. Ya'ni, bu qyta ta'mirlash jarayonlari 1748-yili va 1807- yillarda amalga oshirilganligi bu yerda yozilgan yozuvlardan ayon bo'ladi.

Masjidda Ko'fi yozuvida bitilgan qadimiy Qur'on saqlanadi. Ushbu muqaddas kitob Jayronn terisiga bitilgan bo'lib, hozirgi kunda uning 13 varog'I saqlanib qolgan holos. Ushbu kitob ustida tadqiqot olib brogan Sank peterburg professor Rizvoning aniqlashicha Katta Langardagi Qur'onning boshqa varoqlari turli sabablar bilan xorijiy mamlakatlarga olib ketilgan. Professor Rizvon kata mashaqqatlar bilan Katta Langar Qur'onining yetishmaydigan varoqlarini turli mamlakatlardan topishga erishgan va ularning foto nusxalarini olib yaxlid holatga keltirib Katta Laangar Masjidiga sovg'a qilgan. Rossiyalik bu zahmatkash olimning xizmatlari taxsinga sazavordir. O'zbekistonning uzoq tog' qishloqlaridan biri Katta Langarda XV-XVI asrlarda barpo qilingan ushbu masjid o'z memoriy yechimlari, usullari, bezaklari, naqshlari va yozuvlari bilan O'rta Osiyo memorchilik san'atida olohida qimmatga va ahamiyatga egadir. Bu yerda yashagan keksalarning olimlarga hikoya qilishicha, masjidni qurilishida Qashqadaryo vohasida yashayotgan ko'pgina ulug'larning vakillari o'z hissalarini qo'shganlar. Masjidda bugungi kunda ham Katta Langarda yashagan aholi va bu tabarruk maskanga: ziyoratga kelgan mehmonlar ibodat qilishadilar. Maqbara sahnida beshta sag'ana mavjud bo'lgan. Bu besh sag'ananing biri Hazrati Langar ot Shayx Muahmmad Sodiq qabrlari bo'lib, tosh bitikda ul zotning 1460-yilda tavallud topib 1545-yilda vafot etganligi qayd qilingan. Ikkinchi sag'ana esa, u kishining otalari shayx Abul Hasanga tegishlidir. Darvaqeyi



bu maqbara ul kishininh vafoti munosabati bilan Hazrat Muhammad Sodik bilan 1492-yilda barpo etilgan. Sag'analar qatoridan o'rin olgan uchinchi qabr esa, Langar otaning o'g'illari bo'lmish Hasan shayxga tegishli bo'lib, u kishi 1560-yilda vafot etgan. Yaman mamlakatining shohi, shayx Abul Hasanning xalifalari Ibn Sariq Sulton Jo Bahodir qabri to'rtinchi sag'ana sifatida o'rin olgan. Beshinchi sag'ana ayol kishiga tegishli bo'lib, manbalarda bu ayol, Langar otaning yaqin kishilaridan biri ekanligi aytiladi. Langat otalari haqidagi rivoyatlarga keladigan bo'lsak, odatda mozeyda yashab o'tgan odamlar va ular bilan bog'liq voqealar haqidagi ma'lumotlar vaqt o'tishi bilan rivoyatlar qobig'iga o'rala boshlaydi. Orada ancha vaqtlar o'tgach esa rivoyatlar bilan haqiqatni ajratib olish mumkin bo'ladi. Shu sababli ham har qanday rivoyatlarning zamirida qandaydir haqiqat yotadi degan fikr paydo bo'ladi. Bu holdan o'tmishda yashab o'tgan yashab o'tgan Langar shayxlarining hayotlari ham mustasno emasdir. Shu tufayli Langar otaning maqbaralari va qadam joylari joylashgan qishloqlarda yashovchi xalqlar orasida, bu ulug'zotlar bilan bog'liq turli rivoyatlar saqlangandir. Lekin, afsuslar bo'lsinki sobiq Sho'rolar tizimi paytida bu rivoyatlar bilan ko'pgina keksalar bilganlarini o'zlari bilan olib ketishga majbur bo'lgandir. Ammo, bunday ajinarli holga qaramasdan ayrim olimlar, XX asrning 50-60-yillarida bu rivoyatlarni yozib olishga ulgurgan edilar. Bu rivoyatlar Langar shayxlari bilan bog'liq voqealarni anglashda juda kata yordam bo'lishi mumkin degan maqsadda ularning ayrimlari haqida to'xtalib o'tamiz. Langar otalar bilan bog'liq rivoyatlardan biriga keladigan bo'lsak, bu rivoyat bir paytlar Langar otada saqlangan Xirqaga taqalishi mumkin. Bu rivoyatda aytilishicha payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning Xirqasining Katta Langarga keltirilishi Uvaysiya tariqatining asoschisi Uvays al-Qaroniy bilan bog'liq bo'lgan. Milodiy 625-yili Uxat tog'I yonidagi jangda payg'ambarimiz tishidan ajralganligini eshitgan Uvays al-Qaroniy payg'ambarimizga bo'lgan chuqur hurmat va dardiga sherikchilik ramzi sifatida barcha tishlarini sug'urib tashlashiga sabab, u payg'ambarimizning jangda ayni qaysi tishlaridan judo bo'lganliklarini aniq bilmaganligi uchun adashmaslik sifatida barcha tishlarini sug'urib tashlagan ekan va o'z izdoshlarini ham shunga davit qilishga undagan ekan. Uvays al-Qaroniyning qilgan bu ishi payg'ambarimizga ayon bo'lgan ekan. Shu sababli payg'ambarimiz bir kuni nomozdan so'ng, masjiddan chiqayotib o'ng qo'lini ko'tarib xirqalarini yingini hidlabdilar. Atrofdagilarning savol nazarlariga



payg'ambarimiz, xirqamning yingidan Uvays jigarining hidi kelmoqda degan emishlar. Ushbu rivoyatda aytilishicha payg'mbarimiz vafotetayotgan paytda Uvays al-Qaroniy Yamandan movarounnahrda ko'chib kelib hozirgi kata Langar atrofidagi g'orlardan birida yashayotgan ekan. Payg'ambarimiz vafotlaridan oldin xalifa Abu Bakr Lashkar boshi Malik Ajdar va uning yordamchisi Sadi Vaqqosga o'z egnidagi tabarruk xirqalrini Movarounnahrda yashayotgan Uvays al-Qaroniyga eltib vasiyat qilganlar. Ammo payg'ambarimiz vafotlaridan oldin Uvaysning na yashash manzilini va na ismlarini aytmabdilar. Fqatgina uning og'zida butunlay tishi yo'qligini va yelkasida o'zlarining tovonlarida qolgan iz borligini aytibdilar xolos. Payg'ambarimizning vafotlaridan so'ng xalifa Abu Bakr va Malik Ajdar va Sadi raqqoslar vasiyati bajarish ya'ni, tabarruk xirqani o'z egasiga yetkazish uchun Movarounnahr tomonga yo'lga otlanishadilar. Ular Movarounnahrda yetib kelib bir necha oy davomida Uvaysni izlashadilar, lekin, biron-bir natijaga erisha olmabdilar. Ular Nasaf tomonidan kelayotgan vaqtlarida Langar soy qirg'og'ida kasal bir tuyani yuvib tarayotgan bir kishini ko'rishadi va shunda Malik Ajdar hamrohlariga qidirayotgan odamimizni shu kishidan so'ray qolaylik deya taklif qilishadi. Xalifa Abu Bakr unga esa, bunday bemani yumush bilan mashgul devonadan so'rashga vaqt sarflagandan mani yo'q deb javob qiladi. Ular o'z yo'llarida davom etishibdilar. Abu Bakr va uning hamrohlari bir necha oydan so'ng Kesh tog'laridagi bir g'orda bir o'zlari izlashayotgan kishiga o'xshash bir kishini yashashini eshitib va yana Langar soy tomonga qaytib kelishadi. Ular uzoq mashaqqatli yo'l bosganliklari sababli xalifa Abu Bakr mingan tuya juda holdan toyib qoliadi, mehmonlar Langar soy qirg'oqlariga kelganlarida xalifaning ko'zi soy yoqasida o'tlab yurgan sog'lom va baquvvat tushadi. Shunda Abu Bakrning ko'nglidan agarda shu tuyaning egasi uni menga sotsa, Arabistonga eson-omon yetib olardim degan fikr o'tadi. Ular Langar soy yaqinidagi soyga yaqinlashib bu yerda kim bordeya chaqiradilar, shunda ichkaridan keksa bir chol kimsizlar deya g'or ichkarisidan chiqib keladi. Ular esa o'zlarini kimliklarini tanishtirishadi va shunda, Uvays al-Qaroniy payg'ambarimiz Uxud jangida ikki tishlaridan ajralganligida sizlar qayerda edingizlar deya so'rashganida ularning uchchalasi ham, biz payg'ambarimizning yaqinida jang qilayotgan edikdeya javob berishadi. Bu uchchalasi ham izlayotgan odami shu kishi etayotganini taxmin qilishadi. Keyin esa undan yelkasini ko'rsatishini so'rashadilar va uning yelkasida payg'ambarimizning oyog' izlarini ko'rishadi. Bui iz payg'ambarimiz



otga minayotganligida Uvays ning yelkasiga oyog'ini qo'yganligida qolgan bo'lgan. Ular bu izni Uvaysning yelkasida ekanligini ko'rishib payg'ambarimiz vasiyat qilgan xirqani unga berishadilar. Bu xirqani olgan Uvays ularga kutib turinglar deya g'orni ichiga kirib ketadi. Ular esa g'orni yonida ancha kutib qolishadi va bundan toqatlari toq bo'lib, g'orni ichkarisiga kirishadi. Bu paytda esa Uvays yuzini qiblaga qaratga holatda nomoz o'qyotgan edi. Nomoz o'qib bo'lganidan so'ng Uvays, sizlarni yaxshi kutib olishga hechvaqoyim yo'q ammo, bundan uch oy ilgari xalifa minib tuyaning holdan toyganligini ko'rib, bir kasal tuyani parvarishlagan edim, u hozirda batamom tuzalib tashqarida o'tlab yuribdi, uni xalifa Abu Bakrga hadya qilaman deydi. Aytgan gaplari yodiga tushgan xalifaning uyalganligidan yuzlari qizarib ketadiva hadya uchun minnatdorchilik bildiradi.

Bugungi kunda Langar ota masjidi Qashqadaryo viloyatining madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida Davlat mulki hisoblanadi. „Vaqf“ xayriya jamoat fondiga tekin foydalanish shatnomasi asnosida bitiktirilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamsining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan. Hozirgi kunga kelib Langar ota masjidi davlat muhofazasiga olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1.Tarix tilsimi yashiringan qadamjo''qashqadaryo.uz. Qashqadaryo viloyati hokimligi.Qaraldi:08-2023
- 2.Moddiy va madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-dekabrda 846-sonli qarori". Lex.uz.Qaraldi:21-iyul 2022-yil.
- 3.Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida O'zb.Res.Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi 846-sonli qarori''Backend.madaniy meros/uz Qaraldi:21-iyul 2022-yil.
4. Tarixning tilsiz tilsimlari yoxud Langar ota ziyoratgohi haqida''Zamin.uz. qaraldi:3-may2020-yil
5. Langar ota " meros.uz. Qaraldi: 08-2023
6. Langar ota ziyoratgohi''. Uzherutage.org Qaraldi: 08-2023.

